

FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

AXMATQULOV Rasuljon Muhammad o'g'li

Bojxona instituti

4-kurs kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15348065>

DAVLAT TASHKILOTLARIDA AXBOROT-TAHLILY FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat tashkilotlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish va istiqbolni belgilashda axborot-tahliliy faoliyatning dolzarbligi yoritilgan, shuningdek davlat tashkilotlarida axborot-tahliliy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: axborot-tahliliy faoliyat, davlat tashkiloti, tuzilma, milliy xavfsizlik, davlat hokimiyati.

ВАЖНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается актуальность информационно-аналитической деятельности в государственных организациях при принятии управленческих решений и определении перспектив, а также даются предложения по совершенствованию информационно-аналитической деятельности в государственных организациях.

Ключевые слова: информационно-аналитическая деятельность, государственная организация, структура, национальная безопасность, государственная власть.

THE IMPORTANCE OF ORGANIZING INFORMATION AND ANALYTICAL ACTIVITIES IN GOVERNMENT ORGANIZATIONS

ANNOTATION

This article highlights the relevance of information and analytical activities in government organizations when making managerial decisions and determining prospects, as well as provides suggestions for improving information and analytical activities in government organizations.

Keywords: information and analytical activity, state organization, structure, national security, state power.

KIRISH

Hozirgi kunga kelib, axborot-tahliliy faoliyat barcha sohalarda muhim yo‘nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Uning yordami bilan nafaqat davlat idora va organlarida, balki xususiy sektorda ham tashkiliy-tuzilmaviy, boshqaruv va ijro tizimlari joriy etilib kelinmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomil-lashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6013 son Farmoni bilan tuzilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining asosiy vazifalaridan biri etib, mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta‘minlash, shuningdek, korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalarda hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash qilib belgilangan. Shu o‘rinda tahliliy ishning mazmun-mohiyatini tushunish va uning samaradorligini ta‘minlash uchun kerakli shart-sharoitlarni anglab etish dolzarb masala hisoblanadi. Ko‘plab ilmiy tadqiqotchilarning xulosasiga ko‘ra, jarayonning mavjud vaziyati va rivojlanish muammolarini o‘rganish, rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha prognozlar berishga imkon beruvchi xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt (tashkilot) faoliyatining o‘zgarishlarini qayd etishga tahliliy ish deyiladi. Shuning uchun qaror qabul qilish uchun tahliliy ishga quyidagilar zarur hisoblanadi:

- butun tashkilotning yoki tadqiq qilinayotgan ish yo‘nalishidagi muammolarni aniqlash va formallashtirish;
- muammoni o‘rganish uchun ma‘lumotlarni yig‘ish va tizimlashtirish;
- o‘zgaruvchan vaziyat sharoitida muammoning yechilishi uchun vazifalarni belgilab berish;
- muammolarni hal etish bo‘yicha tahliliy ish natijalari-yechimlarini qabul qilish va amalga oshirish;
- tahliliy ish natijalarini boshqaruv sub‘ektigacha yetkazilishini ta‘minlash.

Maqolada davlat boshqaruv organlarida axborot-tahliliy faoliyatning ahamiyati yoritib beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlat organlaridagi axborot-tahliliy faoliyat sohasi chuqur o‘rganilmagan sohalardan hisoblanganligi sababli milliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan uni takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab monografiya, ilmiy ish va dissertatsiyalar o‘tkazilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, milliy tadqiqotchilardan D.Temirov, F.Rustamov, I.Boboqulovlarning tadqiqotlarida axborot-tahliliy ish, tizimli tahlil masalalari keng yoritilgan.

Davlat organlarida axborot-tahliliy faoliyatning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi o‘rni, uni joriy etishning ilmiy va amaliy ahamiyati M.Meskon, M.Albert, X.Franklin, X.Y.Folmut, D.Sadler, E.Sichakovalarning tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

Ushbu tadqiqotlarda davlat organlarida axborot-tahliliy faoliyatning ahamiyati va samaradorligini oshirish usullari, axborot-tahliliy faoliyatni amalga oshiruvchi tuzilmaning davlat idoralari va tashkilotlarida mavjud bo‘lishi va bu sohadagi muammolarning xolisona ko‘rib chiqilishini ta‘minlashga asos bo‘lishi xamda bunda axborot-tahliliy tuzilmasiga sohaga oid o‘zgarishlarni doimiy kuzatib borish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammoli holatlarni oldindan prognoz qilish va yechimlarini taklif qilish vazifasi yuklatilishi kerakligi yoritib o‘tilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni bir qator usullardan foydalanish asosida o‘rganilgan, jumladan, davlat organlaridagi axborot-tahliliy faoliyatni qo‘llashning imkoniyatlari va istiqbollari ilmiy nashrlar hamda xorijiy tajribalar asosida empirik, analiz va sintez tahlil usullari asosida o‘rganilib, rivojlangan mamlakatlar tajribasini mamlakatimizda joriy qilish imkoniyatlari ochib berilgan.

Shuningdek, tadqiqot davomida nazariy yondashuvlar, xorijiy mamlakatlardagi ilg‘or tajribalar bilan solishtirma tahlil, ularga nisbatan mualliflik munosabatini bildirish, statistik ma‘lumotlarni modellashtirish va prognozlash kabi zamonaviy usullardan keng foydalanildi. Ushbu yondashuvlar orqali davlat organlari ish samaradorligini yaxshilash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Globalashuv jarayonlarining o'zgaruvchan dinamikasi doimiy kuzatilayotgan hozirgi zamonda jamiyat bilan hamkorlikning asosiy sharti davlat tashkilotlari va idoralarining jamoatchilik bilan hamkorlikning zamonaviy shakl, usul va vositalaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Davlat tashkilotlari faoliyatida keng qo'llanilayotgan raqamli axborot-texnologiyalari jamiyatdagi muammolar bilan ishlashda yetarlicha samara bermayotganligi sohaga innovatsion yondashuvni talab etmoqda.

Dastlab davlat tashkilotlari va ularning faoliyatida axborot-tahliliy faoliyatning rolini aniqlab olish maqsadga muvofiq. Davlat tashkilotlari tushunchasiga normativ hujjatlarda turlicha tushunchalar berilgan. Jumladan, davlat tashkilotlari va idoralari deganda davlat hokimiyati va boshqaruvini amalga oshirish uchun tashkil etilgan, muayyan vakolatlarga ega bo'lgan rasmiy muassasalar tushuniladi [1].

Ular davlat nomidan ish yuritadi va jamiyatning turli sohalarida faoliyat olib boradi. Shuningdek, ular o'zlariga birlashtirilgan sohalarida va hududlarda davlatning ijro va tartibga solish vazifasini bajarib, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishtirok etishadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni ob'ekt bo'yicha mavjud ma'lumotlarning monitoringi va tahliliga asoslangan holda, uning rivojlanish tendensiyalariga ichki va tashqi tahdidlarni oldindan baholagan holda prognoz qilishni taqozo etadi. Ma'lumki, ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun davlat tashkilotlarida axborot-tahliliy ishi to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim.

Amalga oshirilayotgan o'zgarishlari fonida barcha darajada ijtimoiy va iqtisodiy xarakterdagi muammolar hajmining ortganligi quyidagi yo'nalishlarda axborot-tahliliy ishga bo'lgan talabni oshirmoqda:

- hududlar kesimida rivojlanishni ta'minlash uchun mavjud tashkilotlar faoliyatini ta'minlash;
- asosiy tashkilotlar va sohalar bo'yicha investitsiya taqsimotini ta'minlash;
- harbiy sanoat kompleksini zaruriy yo'nalishlarini saqlab qolish;
- mehnat kapitalidan foydalanish va migratsiyasini amalga oshirish;
- narx siyosati va aholi daromadlarini yuqori darajaga olib chiqish;
- iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini shakllantirish;
- uy-joy, qurilish va kommunal-xo'jalik muammolarini hal etish;
- ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash muammolarini hal etish;
- xalq ta'limi va madaniyat;
- atrof-muhitni asrash va ekologiyani tahlil qilish;
- tabiiy resurslardan ratsional foydalanish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish;
- soliq siyosatini yuritish va boshqalar.

Bugungi kunda, boshqaruv jarayonlarining yopiqligi, qarorlarni qabul qilishning markazlashmaganligi, yuzaga kelayotgan jarayonlardagi o'ziga xoslik, takrorlanmaslik va kutilmaganlik holatlarini mavjudligi davlat tashkilotlarini axborot-tahliliy ta'minotini murakkablashtiradi.

Shunga qaramasdan, barcha darajadagi davlat tashkilotlari xizmatchilari va qaror qabul qiluvchilardan eng kamida konseptual pog'onada bo'lsa ham axborot-tahliliy faoliyat va uni tashkil etishni anglab etishlari talab etiladi.

So'nggi yillarda axborotning soni soniyalar davomida oshib borayotganligi jarayonida davlat tashkilotlarida qarorlarini qabul qilish uchun muhim hisoblangan ma'lumotlarni haqiqiy va soxtasini bir-biridan ajratib olish, dezinformatsiyaga uchmaslik, axborot bilan ishlashning barcha prinsiplariga javob beradigan kerakli xulosalarni qo'lga kiritish axborotni qayta ishlovchi zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llash zaruratini oshiradi. Ushbu texnologiyalar barcha tuzilmalar faoliyatining ajralmas qismlaridan biriga aylanib bo'lgan [2].

Axborot texnologiyalari orasida ma'lumotlar bilan ishlashning asosiy ikki turdagi tizimlari keng qo'llaniladi:

- operatsion ma'lumotlarni qayta ishlashga moslashtirilgan tizimlar (Online Transaction Processing);
- qaror qabul qilish uchun ma'lumotlarni tahlil qilishga mo'ljallangan tizimlar (Decision Support Systems) [3].

Dunyo kibermakonida ma'lumotlarni soniyalar ichida tahlil qilib beraolish imkoniyatiga ega ChatGPT, DeepSeek, Open AI va boshqa shu kabi neyro tarmoqlar yaratilgan bo'lib, ular ochiq manbalarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni kiritilgan algoritm asosida sun'iy intellekt elementlariga tayangan holda kerakli axborot tayyorlaydi. Lekin, ushbu axborotlar tayyor axborot-tahliliy hujjat hisoblanmaydi. Chunki, ushbu hujjatlarda tahlil elementlari mavjud bo'lsada, ular axborot-tahliliy hujjatlarga qo'yilgan talablarga javob bermaydi.

Xalqaro integrasiya jarayonlarida kuzatilayotgan mavjud vaziyat davlat tashkilotlarining axborot bilan ta'minlanganlik darajasi bilan bir qatorda aynan axborot-tahliliy faoliyatni takomillashtirishning zaruriy sabab va omillarini yuzaga keltirmoqda:

birinchidan, yangi texnologiyalar jadal sur'atlarda rivojlanayotganligi axborot-tahliliy ishining yangi usullarini joriy etishni taqozo etadi;

ikkinchidan, kibermakon o'zgarishlari ma'lumotning aniqlik talablariga javob berish darajasini baholashda murakkabliklar yuzaga keltirmoqda;

uchinchidan, milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha asosiy vazifa nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tahdidlar manbasining aniqlash imkonini murakkabligi tashkilotlarda muammoning sabab va omillarini tahlil qilishga to'sqinlik qilmoqda;

to'rtinchidan, katta hajmli ma'lumotlarni tahlil qilish bilan bog'liq qobiliyatga ega kadrlarning tayyorlash tizimining mavjud emasligi va boshqalar.

Hozirda, "axborot-tahliliy faoliyat" tushunchasi yangi o'zlashma so'zlar qatoriga kirsada, u bir qator qonunchilik hujjatlari bilan huquqiy asoslantirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi bilan BMT Taraqqiyot dasturining hamkorlikda 2010 yil 18 avgustda qabul qilingan "Parlament rivojlanishiga ko'maklashish" hujjatida[4] har ikkala palata devonlari ish samaradorligini oshirish va parlament faoliyatini axborot-texnika jihatidan qo'llab-quvvatlash yo'li bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining axborot-kommunikatsiya bazasini, axborot-tahliliy faoliyatining institutsional asosini mustahkamlash borasida texnik jihatdan ko'mak berishi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.03.2018 yildagi "Davlat organlarining ekspert-tahlil faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3628-son qarori bilan barcha davlat tashkilotlarida 20 nafargacha tashabbuskor va malakali mutaxassislardan iborat doimiy faoliyat yuritadigan ekspert-tahlil guruhlarini tashkil etish vazifasi yuklatilgan.

Ushbu hujjatning qabul qilinishiga asos sifatida davlat organlarining axborot-tahlil ishlarini tashkil etishning zamonaviy talablarga javob bermayotgani amalga oshirilayotgan islohotlarni to'liq va o'z vaqtida ro'yobga chiqarish, mavjud muammolarni samarali hal etish va rivojlantirishning innovatsion g'oyalarini ilgari surishga to'sqinlik qilayotganligi keltirilgan.

E'tiborlisi shundaki, axborot-tahliliy faoliyat tushunchasiga rasmiy hujjatlarda ta'rif keltirilmagan. Shuningdek, ushbu tushunchaning qo'llanilish doirasi torligi sababli bu sohaga oid tadqiqotlar ochiq manbaalarda unga nisbatan qo'llanilgan ta'riflar mavjud emas.

Ushbu tushunchaga ilmiy asoslantirilgan ta'riflar asosan g'arb va rus tadqiqotchilarining ishlarida keltirilgan. Xususan, A.Kribokovanning fikriga ko'ra **davlat tashkilotlarining axborot-tahliliy faoliyati** – yangi ilmiy asoslar asosida birlamchi ma'lumotlarni zamonaviy tahliliy texnologiyalar yordamida qayta ishlash orqali olingan sifatli natija bilan jamiyatning axborot ehtiyojini qondirish vazifasini amalga oshiruvchi muhim soha hisoblanad i[5].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, davlat tashkilotlarida axborot-tahliliy faoliyatni yo'lga qo'yilishining dolzarbligini quyidagi 3 ta sabablar bilan izohlash mumkin:

- tashkilotlarning strategik rejalarini ishlab chiqish, muammolarni strategik yechimlarini aniqlash;

- tashkilot sohasi yo'nalishida "oldindan xabardor" bo'lish orqali qaror qabul qilish;

- sohaga oid jarayonlarning rivojlanish tendesiyalarini va muammolarning asosiy sabablarini aniqlash uchun.

Yuqorida keltirilgan izohdan ko'ra I.S.Melyuxin tomonidan berilgan ta'rif bir muncha amaliyroq bo'lib, unga ko'ra davlat tashkilotlarida axborot-tahliliy faoliyatning mazmuni qaror qabul qilish jarayonlarini tezkor ma'lumot bilan ta'minlashga qaratilgan vazifalarni bajarishdan iborat[6].

Lekin, ushbu ta'rif ham to'liq emas. Sababi, tashkilotda qaror qabul qilish jarayonini axborot bilan ta'sinlash axborot-tahliliy ishining ichki vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki, tashkilotning jamiyat bilan aloqasini uzviyligini ta'minlash kabi tashqi vazifalarni ushbu ta'rif to'liq qamrab olmaydi.

Axborot-tahliliy faoliyatning davlat tashkilotlari uchun zarur ekanligini qisqacha har qanday darajadagi qarorlarni qabul qilishni optimallashtirish uchun zaruriy ma'lumotlarni yig'ish, tekshirish, tahlil qilish va qayta ishlash bilan bog'liq vazifani amalga oshirishi bilan izohlash mumkin.

Shunga o'xshash ta'rifni tadqiqotchilar P.Y.Konotopov va Y.V.Kurnosovlar [7] ham keltirib o'tishgan bo'lib, ular davlat tashkilotlarida axborot-tahliliy faoliyatni yuritishning asosiy maqsadi qaror qabul qiluvchi shaxslarni professional faoliyati uchun zaruriy va yetarli hajmdagi ma'lumot bilan ta'minlash deb keltirib o'tishgan.

Shuningdek, tadqiqotchilar tomonidan davlat tashkilotlarida axborot-tahliliy faoliyatini yo'lga qo'yish bilan bog'liq bir qator muammolar ham aniqlangan. Ularga:

- davlat tashkilotlari tuzilmalarida yagona axborot muhiti joriy etish bilan bog'liq to'siqlar mavjudligi;

- axborot-tahliliy tizimlarini joriy etish bilan bog'liq sohani yetarli moliyalashtirilmasligi;

- davlat tashkilotlarining xususiy sektor bilan moliyaviy raqobatbardoshligi pastligi natijasida yuzaga keladigan kadr yetishmovchiligi bilan bog'liq muammolar.

Bundan tashqari, bu sohaga oid ilmiy-nazariy muammolar ham mavjud bo'lib, ularga:

- davlat tashkilotlarining faoliyati bo'yicha amalga oshiriladigan tahliliy ishning asosiy muammoga yo'naltirilmasligi;

- ma'lumotning hajmi va sifati o'rtasidagi tafovutlarning mavjudligi;

- tashkilotlardagi tahliliy tuzilmalar ishining faqatgina xabar berish bilan chegaralanganligi;

- tahlilchi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bilan bog'liq tizimning yaratilmaganligi;

- tahliliy tuzilmalarni axborot bilan ta'minlash tizimining muntazam emasligi va boshqalar.

Tadqiqotchi D.P.Xijnyakov ushbu muammolarni keltirib chiqaruvchi omillarni quyidagilar deb hisoblaydi.

Birinchidan, barcha davlat tashkilotlarining axborot-tahliliy tizimlari mustaqil bo'lib, qo'yilgan muammoni hal etish uchun ularning birgalikdagi faoliyat yuritish tamoyili yo'lga qo'yilmagan. Ikkinchidan, qaror qabul qilish tizimida axborot-tahliliy ishi natijalaridan foydalanish darajasi barcha tashkilotlarda turlicha[8].

Ta'kidlash joizki, davlat tashkilotlari orasida vazifasiga ko'ra siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy sektorga oid tashkilotlarda hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarda axborot bilan ishlash yuqoriligi sababli ular axborot-tahliliy faoliyatni joriy etish muhimligi ham yuqori zarurat hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Barcha quyi davlat organlari mamlakatning milliy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq barcha vazifalarini bajarishda ma'lumotlarning tezkor tahlili va jamiyat hayotiga oid muhim ijtimoiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solinishi optimallashtirish uchun qaror qabul qilish imkonini beruvchi tahliliy ma'lumotlarni hukumatga taqdim etib borishi lozim.

Ta'kidlash joizki, axborot-tahliliy faoliyatni joriy etish orqali istalgan sohaga oid tizimli muammolarni kompleks tahlil qilish, kelgusida ularning rivojlanish tendensiyalari bo'yicha prognozlarni ishlab chiqish har qanday fors-major holatlarida ham sohaga ta'sir etishi mumkin bo'lgan tahdidlarning oldini olish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, axborot-tahliliy faoliyat barcha davlat tashkilotlarining zaruriy vazifalaridan biriga aylanib bo'lgan. Asosiy masala esa ushbu vazifani amalga oshirish tartibini to'g'ri tashkil etish hamda minimal vositalar sarfi asosida maksimal natijadorlikka erishish hisoblanadi.

REFERENCES. IQTIBOSLAR. CHOSKI.

1. Хожиев Э.Т, Рахимова М.А, Исмаилова Г.С, Нематов Ж.Н, Юлдашева Ф.У. Ўзбекистон Республикасида давлат хизматини ислох этишнинг ҳуқуқий асослари: давра суҳбати материаллари. -Тошкент: Vaktria press, 2015. - 156 б
2. Каира Ю.В. информационно-аналитическое обеспечение деятельности органов исполнительной власти извещения Тульского государственного университета. Гуманитарные науки. 2015.№3.С.3-8
3. Сахаров А.А. Концепция построения и реализации информационных систем, ориентированных на анализ данных// СУБД, - 1996. – С. 55-70
4. Интернет маълумотлари: <https://lex.uz>
5. Кривобокова А. Интернет-бизнес-аналитика – информационная технология нового века [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.fact.ru>.
6. Милухин И. С. Методическое обеспечение информационно-аналитической деятельности в органах исполнительной власти // НТИ. Сер. 1. 1993. № 9. С. 19.
7. Конотопов П. Ю., Курносое Ю. В. Аналитика: методология, технология и организация информационно-аналитической работы. М., 2004.С. 13–14.
8. Хижняков Д. П. Информационно-аналитические службы и их деятельность по обеспечению процесса принятия решений в региональных органах власти // Молодой ученый. 2010. № 1–2 (13), Т. -С. 266.